

KREDIT-MODUL TIZIMIGA O'TISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aralova Maxsuma Abdurahmonovna

Nizomiy nomidagi TDPU uzlusiz ta'lim tizimi muassasalariga metodik xizmat
ko'rsatish bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kredit-modul tizimi, uning yuzaga kelish va rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, imkoniyatlari va afzalliklari hamda ushbu tizimning O'zbekiston oliv ta'lim tizimida joriy etilishining alohida jihatlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, kredit, modul, jarayon, baholash, salohiyat, to'lov-kontrakt, konvertatsiya, reyting, mustaqil ta'lim, fan dasturi.*

Аннотация: В данной статье описана кредитно-модульная система, этапы ее возникновения и развития, ее уникальные особенности, значение, возможности и преимущества, а также особенности внедрения данной системы в высшее образование Узбекистана.

Ключевые слова: образование, кредит, модуль, процесс, оценка, потенциал, контракт, конвертация, рейтинг, самостоятельное обучение, научная программа.

Abstract: This article describes the credit-modular system, the stages of its emergence and development, its unique features, significance, opportunities and advantages, as well as the features of the implementation of this system in higher education in Uzbekistan.

Key words: education, credit, module, process, assessment, potential, contract, conversion, rating, self-study, scientific program.

Bugungi kunda dunyo miqyosida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham yangilanishlar, o'qitish va baholashning zamonaviy metodlari joriy etilmoqda. Shunday yangiliklardan biri bu kredit-modul tizimi bo'lib, Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida ushbu tizimdan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yilning 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni imzolandi. Ushbu

muhim dasturilamal hujjatda “respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universitiyes) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” belgilab berildi¹.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu tizimga o‘tishdan ko‘zlangan asosiy maqsad Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ta’minalash maqsadida birlamchi xarajatlarni amalga oshirgandan so‘ng bo‘shab qolayotgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushgan budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Respublika oliy ta’lim kengashining bir qator ta’limni rivojlantirishga doir tadbirlarini amalga oshirishdan iborat etib belgilandi.

Xususan, oliy ta’lim muassasasida 3 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda professor-o‘qituvchilarning nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarda stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi, oliy ta’lim muassasasida 5 yil ishlab berishni nazarda tutuvchi shartnomani rasmiylashtirgan holda o‘qituvchilarni nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalarning doktorantura dasturlari asosida o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirish, oliy ta’lim muassasasi huzurida faoliyat yuritayotgan davlat ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qurilish, joriy va kapital ta’minalash, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari uchun zarur mablag‘lar ajratish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori asosida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, Ushbu Nizom oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilaydi. Shuningdek, kredit-modul tizimining asosiy tushunchalari, ta’lim dasturi tuzilmasi, o‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va

¹ “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son [Farmoni](#). 2019-yil 8-oktyabr.

ta'lim sifatini ta'minlash, akademik mobillik va kreditlarni tan olish, baholash, baholarni konvertatsiya qilish, kredit-modul tizimida ro'yxatga olish xizmatini tashkil etish hamda talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish mexanizmlari ham ushbu Nizom asosida tartibga solinadi. Bundan tashqari, ushbu Nizomda Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab 2030-yilgacha Respublikamizdagi barcha Oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimiga to'liq o'tishi ko'zda tutilgan¹.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida talabalarning mustaqil ishslashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisiga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Modul – bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishga qaratilgan bir nechta fanlar majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-3tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy

¹ "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori

to 'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo 'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo 'lish talab etiladi.

Kredit— talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliv ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktiv'i"ga aylanib boradi¹.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kredit – ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kredit to'plash – ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash hisoblanadi.

Ilk bor kredit-soat tizimi AQShda paydo bo'lган va rivojlangan. 1968-yilda Amerika ta'limining taniqli arbobi, Garvard universiteti prezidenti Charlz Eliot tomonidan "kredit soati" tushunchasi kiritildi va 1870-80-yillarda kredit soatlarida o'lchangan akademik ish miqdori joriy etildi. 1892-yildan "kredit-soat" tizimi rivojlanishining ikkinchi bosqichiga start berildi. AQSh Milliy ta'lim qo'mitasi tomonidan "kollej-maktab" aloqasini yaxshilash, o'quv dasturlarini standartlashtirish maqsadida umumta'lim maktablarida va kollejlarda ham "kredit" tushunchasi joriy etildi. Maktablar, bakalavr, magistratura va doktorantura ta'lim dasturlari mazmuni hajmini baholash uchun kredit tizimiga o'tildi.

Xulosa. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy

¹ Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TTKI, 2020. – 120-bet

bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, yangi tizimga o‘tilar ekan, bunda talabalar va professor-o‘qituvchilarning salohiyat darajasini, ularning yangilikka moslashuvchanligini, ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilayotgan fan dasturlari va o‘quv rejalar, yaratilayotgan o‘quv adabiyotlari, darslik va qo‘llanmalarni ham shu tizim oldimizga qo‘yayotgan shartlarga moslashtirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirib borish shart. Oldimizda turgan asosiy vazifa xorij tajribasini pala-partishlik va shoshma-shosharlik bilan joriy etish emas, balki oliy ta’lim sifatini, talabalarimizning bilim va ko‘nikmalarini hamda professor-o‘qituvchilarimizning ilmiy salohiyatlarini jahon standartlari va rivojlangan davlatlarga tenglashtirish bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. – 120-bet.